

BADIIY VA JONLI DIALOGIK NUTQ XUSUSIYATLARI**Eshqurbonova Aziza Bozor qizi****Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti****pochta: eshqurbanovaaziza@gmail.com****Тел: +998996878267****<https://doi.org/10.5281/zenodo.10984754>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matnning mazmunli tarkibi boʻlgan badiiy dialoglar haqida soʻz yuritiladi. Badiiy dialogik nutq va jonli dialogik nutqning farqli xususiyatlari toʻgʻrisida fikrlar bayon etilgan. Dialoglar badiiy matnda qahramonlarning oʻzaro fikr almashish jarayonigina emas, balki qahramonlar dunyoqarashini aks ettiruvchi, kitobxonda ularga nisbatan salbiy yoki ijobiy fikrni uygʻotuvchi, muallif niyatini roʻyobga chiqaruvchi muhim ahamiyatga ega boʻlgan hodisa sifatida tadqiq qilingan.

Аннотация. В данной статье говорится о художественных диалогах, которые являются смысловым содержанием художественного текста. Представлены мнения о различных характеристиках художественной диалогической речи и живой диалогической речи. Диалоги – это не только процесс взаимного обмена мыслями между персонажами художественного текста, но и важное событие, отражающее мировоззрение героев, вызывающее у читателя отрицательное или положительное мнение о них, реализующее замысел автора.

Annotation. This article talks about the artistic dialogues that are the meaningful content of the artistic text. Opinions about the different characteristics of artistic dialogic speech and live dialogic speech are presented. Dialogues are not only the process of mutual exchange of thoughts between characters in the literary text, but also an important event that reflects the worldview of the characters, evokes a negative or positive opinion about them in the reader, and realizes the author's intention.

Tayanch soʻzlar: dialog nutq, badiiy dialog, tabiiy-jonli dialog, fiksatsiya, muallif niyati.

Ключевие слова: диалоговая речь, художественный диалог, природно-живой диалог, фиксация, авторский замысел.

Key words: dialogue speech, artistic dialogue, natural-animate dialogue, fixation, author's intention.

Badiiy matn tilshunoslikning eng murakkab va koʻp qirrali obyektidir. U boshqa matn turlaridan ifoda usullarining betakrorligi, ruhiy, estetik va didaktik taʼsir koʻrsatishning kuchliligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Badiiy matn – inson borligʻining til orqali reallashuvi, inson mening roʻyobga chiqish shakli hisoblanadi. Kitobxonga estetik va ruhiy taʼsir koʻrsatish, shu asosida muayyan voqelikka, voqelik qatnashchilariga nisbatan oʻquvchining munosabatini shakllantirish badiiy matnning vazifasi hisoblanadi.

“Badiiy asar muloqot asosida dunyoga keladi, yaʼni ijod jarayoni mohiyatan muloqotdir... Yozuvchi ijod onlarida oʻquvchi bilan muloqotda boʻladi: unga muayyan badiiy informatsiyani yetkazadi, oʻzining oʻy-hislari bilan oʻrtoqlashadi, u bilan bahslashadi, uni nimalargadir ishonitirishga intiladi... Ayni shu muloqot – ijodiy jarayon asar matnida muhrlanadi... Koʻramizki, badiiy matn muddati kechiktirilgan muloqot, badiiy asar esa shu muloqotning amalga oshishini taʼminlovchi vosita”[1]. Ayni shu jarayonda dialoglar badiiy matnning mazmunli tarkibi sifatida yuzaga keladi. Dialoglar badiiy matnda qahramonlarning oʻzaro fikr almashish jarayonigina

emas, balki qahramonlar dunyoqarashini aks ettiruvchi, kitobxonda ularga nisbatan salbiy yoki ijobiy fikrni uygʻotuvchi, muallif niyatini roʻyobga chiqaruvchi muhim ahamiyatga ega boʻlgan hodisadir.

Badiiy asarning katta qismini tashkil qiluvchi dialoglar badiiy matnda syujetni rivojlantirish, harakterlarni takomillashtirish, qahramonlar oʻrtasidagi munosabatlarni yoritish, ularning ichki dunyosini ochish, yuzaga kelgan ziddiyatlarni keskinlashtirish hamda badiiy asarning haqqoniyligini taʼminlash uchun xizmat qiladi. Shunga koʻra dialoglar badiiy matnda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Axborot berish vazifasi. Dialog orqali yozuvchi turli taʼriflar, harakat sodir boʻlgan joy va vaqt, oldingi voqealarni aniqlab beradi.
2. Psixologik vazifasi. Badiiy matnlarda dialog jarayonida, shuningdek xatti-xarakatlarda asar qahramonlarining psixologik holati kitobxon uchun aniq namoyon boʻladi.
3. Baholash vazifasi. Asar muallifi qahramonlar dialogik nutqi yordamida asar voqealarini, vaziyatlarini, qahramonlarini baholash imkoniyatlarini oshiradi.

Bugungi kunda tabiiy va badiiy dialogik mikromatn chegaralarini belgilash muammosi eng murakkab va munozarali masalarlardan biri hisoblanadi. Koʻpchilik tilshunos olimlar oʻz tadqiqotlarida badiiy matndagi dialogik nutqni real vaziyatlardagi dialogik nutqning “stilizatsiyasi” deb hisoblashgan. [2].

Badiiy dialogning bir qancha xususiyatlari bor, u shu jihatdan kundalik muloqotdan tubdan farq qiladi. V.V. Vinogradov, T.G. Vinokur, N.Yu. Shvedova va boshqalarning fikriga koʻra, badiiy dialog deganda dialog nazariyasida mavzu soʻzlashuv nutqining nusxasi boʻlmagan, lekin ayni paytda unga taqlid qila oladigan, uning oʻziga xos elementlarini ifodalovchi alohida soha tushuniladi. [3] Soʻzlashuv dialogik nutqining oʻziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon boʻladi: mulohazalarning qisqaligi va toʻliq boʻlmagan bayonotlarning mavjudligi, imo-ishoralar, mimikalardan keng foydalanilishi, intonatsiyaning mavjudligi, jummalarning erkin tuzilishi, nutqning tayyor emasligi, jargon, sleng, dialektizmlarning qoʻllanishi ustunligi kabilar. Badiiy matndagi personajlar dialogi bu asarda muallif nazarida ogʻzaki muloqotga yozma taqlid sifatida tushuniladi, bunday dialog ayni paytda ogʻzaki va yozma nutqning barcha xususiyatlarini oʻzida mujassam etadi.

Muallif tomonidan badiiy dialogning asosi sifatida qabul qilingan suhbat dialogining modeli ikkinchi "tashqi" kommunikativ rejaning mavjudligi bilan murakkablashadi. Shubhasiz, badiiy asardagi personajlar dialoglari badiiy adabiyot maydonida, muallif tasavvuri bilan yaratilgan badiiy olam makonida boʻlsa-da, bunday dialoglar replikalarining niyatlari ortida muallifning oʻquvchiga taʼsir qilish singari niyati yashirin boʻladi. Boshqacha qilib aytganda, asar qahramonlarining har bir nutq harakatidagi niyati muallifning umumiy maqsadiga boʻysunadi.

Badiiy asardagi qahramonlarning dialogik nutqining funksiyalari yuzaki olib qaraganda badiiy dialog personajlarning nutqiy oʻzaro taʼsiri jarayonini fiksatsiya qiladi, ammo chuqur darajada kommunikantlarning muallif tomonidan badiiy asarning joʻnatuvchisi, oʻquvchi esa matnning manzili yoki oluvchisi sifatida rol oʻynaydi. Boshqacha qilib aytganda, badiiy matnda ikki oʻlchovli kommunikativ vaziyat mavjud boʻladi, bunda personajlar dialoglari muallif tomonidan oʻquvchiga taʼsir qilish niyatini amalga oshirish uchun qurilgan boʻlsa, asar qahramonlari dialoglari ham bir-biriga taʼsir qilish maqsadini ifodalaydi. Badiiy dialogning oʻziga xosligi ichki (asar qahramonlari oʻrtasidagi dialog) va tashqi (muallif va oʻquvchi oʻrtasidagi muloqot) belgilari mavjudligi bilan namoyon boʻladi.

Budagov badiiy va tabiiy dialog uchun quyidagi xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi: muayyan uzunlik, rejalashtirish, mulohaza yuritish, muallif tomonidan belgilangan yagona harakatga bo'ysunadigan elementlarning o'zaro bog'lanishi hamda matnni qurishda vaqt, ritm va tempning muayyan qoidalari. Yuqoridagilarni inobatga olib og'zaki so'zlashuv dialogiga quyidagilar xosdir: muloqot davomiyligining erkinligi, spontanlik, so'zlashuv jarayoning erkinligi, qo'shimcha omil - intonatsiya mavjudligi. Ma'lum ritm va tempning yo'qligini ham og'zaki tabiiy dialogning alohida xususiyati sifatida kiritishimiz mumkin. Suhbat dialogi har qanday og'zaki nutq kabi ma'lum til qonuniyatlari asosiga quriladi, ammo bunda bu qoidalarning xilma xilligi, ularni buzish hamda erkin qurilish katta rol o'ynaydi:

- Sizda "Ikki eshik orasi" kitobi bormi?

- Yo'q.

Badiiy dialoglarda mazmun muallifning izohi bilan oydinlashadi:

- Dissertatsiya qanaqa ahvolda, deb so'rayapman?

- Dissertatsiyami? - Anvar tushunmaganday yelka qisdi. - O'sha-o'sha reaksiyon millatchilik isi ufurib yotibdi. (T.Malik. "Shaytanat".)

Badiiy asarlardagi dialoglar qisqa hikoyalar, rivoyatlar, latifalar, u yoki bu mavzu bo'yicha mavhum mulohazalar mavjudligi bilan murakkablashadi, ular lirik, falsafiy chekinish, hikoya qilish shaklini oladi. Ayrim hollarda dialog ishtirokchisi (muloqotchi) o'z suhbatdoshiga, shuningdek o'quvchiga murojaat qilib, hikoya qiluvchiga aylanadi. Asar personajlarining javoblari kiritilgan elementlar tufayli sezilarli darajada uzaytirildi, ular dialog uchun juda "qo'pol" holat hisoblanadi, bu dialog ichidagi deyarli monologdir.

— Siz ig'voning inini kavlayapsiz. Men haqiqat deb yigirma besh yilga qamalman.

— Sizga og'ir botadigan gap aytgan bo'lsam, uzr. Gunohimni yuvish uchun bir hikoya aytib beraman. Juda qiziq, eshitmasangiz armonda qolarsiz. O'zi hayotda yuz bergan voqea ekan, ammo men uni ertak tarzida so'zlayman. Shunday qilib, bo'ri bakovul, tulki yasavul, chumchuq chaqimchi bo'lmagan zamonda bir baxtiyor yosh olim yashagan ekan. U avval ustozlarining, so'ng tengdoshlarining oyog'i ostiga cho' qazibdi. Shahanshoh uning beminnat xizmatlarini qadrlab turibdi. Yosh olim ilmga emas, shunday munofiqlikka iqtidorli ekan. Go'dakligida iblis undagi inson yuragini yulib tashlab, o'z qalbining bir parchasini qo'yg'an ekan-da. Yosh olim ko'pning ichida dadil turib, «Shahanshoh hayvon!» der ekan. Suhbatdoshi «shunaqamikin, a?» desa bas, borib «Falonchi sizni vahshiy hayvon dedi», derkan. Qarabsizki, o'sha suhbatdosh zindonga qanday tushib qolganiga hayron. Bora-bora sotadigan odami qolmagach, o'z boshi uzra qora bulutlar aylanayotganini sezibdi. Shahanshoh «o'z yaqinlariga xoinlik qilgan odam menga sadoqatda bo'larmidi?» debdi. Shoh bir qarorga kelguncha yosh olim eng so'nggi laqma do'stini avrabdi. Yaxshilab kiyintirish bahonasida Shahanshohning tikuvchisidikiga boshlab boribdi. Undan avval shohning shopirini qo'lga olibdi. Shohning moshinasida tikuvxonaga savlat to'kib boribdi. «Men malikaning ukasiman», deb o'zini tanishtiribdi. Xullas, ikki kun deganda ular ustlariga shohona liboslarni ilishibdi. Tikuvchi esa Malikadan rahmat eshitish maqsadida telefon qilib, «ukangizga libos yarashibdimi?» debdi-yu, sir oshkor etilib, yosh olim qamalibdi. Qamoqda ham iqtidori ish berib, ig'vogarligini davom ettiraveribdi. Bir yil deganda Shahanshoh o'libdi-yu, yosh olim ham siyosiy mahbuslar qatorida ozodlikka chiqibdi. U ham tuhmat jabrini tortganlar safidan o'rin olibdi...

Ba'zan suhbatdosh keltirayotgan hikoyasi ichida ham dialog bo'lishi mumkin.

Badiiy dialogni asar kontekstidan ajratib ko'rsatish muammosi badiiy dialogni bog'lash muammosi bilan chambarchas bog'liq. T.G. Vinokurning so'zlariga ko'ra, dialogning o'zaro bog'liqligi aniq belgilangan maqsadga, unga erishish imkoniyatiga, dialogik taktikani tanlashga, ushbu maqsadni adresat uchun amalga oshirish oqibatlariga va boshqalarga bog'liq. [4].

“Har qanday nutqiy hodisa ma'lum niyat asosida namoyon bo'ladi. Odamlar nimadir haqidagi o'z muhokamalarini bayon qilish niyatida maslahat, va'da yoki taklif qilish, tinglovchini biron narsaga ishontirish maqsadida so'zlaydilar.”[5] Xuddi shunday badiiy matnlardagi dialoglarda ham muallifning o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan niyati oydinlashadi. Ayrim dialogda tashabbuskorning kommunikativ maqsadini tushunib olish qiyin bo'lishi mumkin, chunki undagi haqiqiy maqsadi (dialog mavzusi kabi) jumlar ostida yashirin holda ifoda etiladi. “So'zlovchi har qanday nutqiy aktda nimanidir aytishni maqsad qiladi, bu maqsad tinglovchi tasavvurida nima uchun hamda nima niyat bilan so'zlanayotganini xis etishdan iboratdir”. [6] Bu jarayon badiiy dialogda ikki hissa ko'proq vazifa yukini oladi, ya'ni o'quvchi asar qahramonlari o'rtasidagi dialoglarning maqsadini hamda muallifning ushbu dialog orqali bildirmoqchi bo'lgan maqsadini tushinishi kerak. Albatta, bu jarayonda o'quvchining bilim fondi va malakasi muhim. Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, dialog badiiy matnning asosiy mazmunli tarkibi hisoblanib, u ba'zi xususiyatlari bilan jonli dialogdan farq qiladi. Badiiy dialog va so'zlashuv dialogi o'rtasidagi farqlar ushbu dialoglar mavjud bo'lgan makondagi muloqot turlarining farqlari bilan belgilanadi: badiiy dialog badiiy dunyo makonidagi, muallif tomonidan uydirma og'zaki muloqot sohasiga; so'zlashuv dialogi - real dunyo makonida og'zaki muloqot maydoniga oid bo'ladi.

References:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Andijon: Hayot, 2002.- 72 b.
2. Сиротинина О.Б. Современная разговорная речь и ее особенности. – М.: Просвещение, 1974.С.39. Дородных А.И., Рекадо В.В. Некоторые соображения по вопросам лингвистики текста // Теоретические и прикладные аспекты коммуникативной деятельности; – Вестник Харьковского зшиверситета. – №382. – Харьков, 1994. – С. 40–46.
3. Виноградов В.В. Избранные работы. О языке художественной прозы. М., 1980. Винокур Т.Г. Говорящий и слушающий. Варианты речевого поведения. –М.: Наука, 1993. Шведова Н.Ю. Очерки по синтаксису русской разговорной речи. М., 1960, с. 280–352.
4. Винокур Т.Г. О некоторых синтаксических особенностях диалогической речи в современном русском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук.– Москва. 1954.
5. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. Логико–семантические проблемы. М.: – Наука, 1976. – С.47.
6. Ҳақимов М. Прагмалингвистика асослари. – Тошкент. 2020. Б. 131.